

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UO'K: 338.45(575.15)"19/20"

**FARG'ONA VILOYATIDA YOG'-MOY SANOATINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN
(XIX asr oxiri XX asr boshlari)****ИЗ ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ
ОБЛАСТИ
(конец 19 века, начало 20 века)****FROM THE HISTORY OF FORMATION OF OIL INDUSTRY IN FERGANA REGION
(late 19th century, early 20th century)****Abdugafur Sharafiddinov**

Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Rossiya imperiyasi davrida Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi. Muallif arxiv materiallari va boshqa tarixiy manbalar asosida sanoatning ushbu tarmog'ining tashkil etishdan maqsad, erishilgan yutuqlar va mavjud bo'lgan kamchiliklar, ularning holati to'g'risida fikr yuritadi.

Аннотация

В статье прослеживается создание и развитие нефтяной промышленности в Ферганской области во времена Российской империи. На основе архивных материалов и других исторических источников автор размышляет о целях организации этой отрасли промышленности, достижениях и имеющихся недостатках, их состоянии.

Abstract

The article traces the creation and development of the oil industry in the Fergana region during the Russian Empire. Based on archival materials and other historical sources, the author reflects on the purpose of the organization of this branch of industry, the achievements and existing shortcomings, and their status.

Kalit so'zlar: Paxtachilik, kunjut, kanop, moyjuvoz, chigit, uyezd, kustar, o'simlik yog'i, pud, kunjara, karvon, atmosfera, gidravlik press, vagon-sistema, aksionerlik, savdo-sanoat.

Ключевые слова: Хлопок, кунжут, конопля, масличное, семя, уезд, ремесленник, растительное масло, пуд, кунджара, караван, атмосфера, гидравлический пресс, вагон-цистерна, павоее участие, торговля и промышленность.

Key words: Cotton, sesame, hemp, oilseed, seed, uyezd, artisan, vegetable oil, pud, kunjara, caravan, atmosphere, hydraulic press, tank wagon, shareholding, trade and industry.

KIRISH

XIX asrning oxiriga kelib paxtaning xalq xo'jaligidagi tutgan o'rni yuqori pog'onaga ko'tarildi. Viloyat statistika boshqarmasining ma'lumotlariga qaraganda "bir million olti yuz yigirma ming aholisi mavjud bo'lgan Farg'ona vodiysi muhim mavqega ega bo'lgan. Bu o'lkaning iqlim sharoitiga muvofiq paxta, nodir mevalar va uzumlar yetishtiriladi. Ayniqsa paxta katta ahamiyatga ega bo'lib, har yili 25 dan 40 mln so'mgacha daromad bermoqda. Hosil yaxshi bo'lgan 1900-yili besh million pud paxta tolasi olindi va Rossiya sanoatining ehtiyojini uchdan bir qismi ta'minlandi". [10.2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Paxtachilikning rivojlanishi viloyatda yengil sanoat tarmoqlaridan bo'lgan yog'-moy sanoatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Biroq sanoatning bu turi mahalliy sharoitlardan kelib chiqib faqat XX asr boshlariga kelib shakllana boshladi.

Yerli aholi asosan ovqat tayyorlashda asosan mol va qo'y yog'i ishlatganlar. Shu bilan birga, mahalliy aholi qadim davrlardan boshlab kunjut, kanop, zig'ir, ko'knori hamda qisman chigitdan moy ajratib olish bilan shug'ullanib kelgan. Bunday turli yog'li don va mag'izlarni qo'shib, siqish yo'li bilan moyjuvozlarda tayyorlanadigan yog'lar to'yimligi va lazzati bilan ajralib turgan. Bir moyjuvozning ish unumi ancha past bo'lgan. Bir moyjuvozning 6 soatlik ish jarayonda hammasi

bo'lib 5 funt (1 funt 418 gramm) moy olish mumkin edi, xolos. [11.111] Lekin, shunday bo'lishiga qaramasdan moyjuvozlarning aholining shu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlay olgan. Chunki bu ehtiyojning kattagina qismi aholi tomonidan suyib iste'mol qilinadigan qo'y yog'i hisobiga qondirilar, lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, moyjuvozlarning butun Turkiston o'lkasida, shu jumladan Farg'ona viloyatida ham keng tarqalgan edi. Masalan, Qo'qon xonligi tugatilgan 1877-yilda Andijon shahrida 182 ta, Namangan shahrida – 82 ta moyjuvozlarning mavjud bo'lgan. [11.109].

Ta'kidlash lozimki O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin ham moyjuvozlarning orqali yog'-moy ishlab chiqarish ko'payib bordi. Buning sababi aholining tabiiy o'sishi bilan birgalikda, o'lkaga yevropalik aholini o'lkaga ko'plab ko'chib kelishi bilan bog'liq edi. 1884-yilda Farg'ona viloyatining barcha uyezdlarida 798 ta moyjuvozlarning faoliyat ko'rsatib, ularda 1140 nafar ishchilar ishlab umumiy ishlab chiqargan mahsuloti 70120 rub.ni tashkil etgan edi. [12.92].

NATIJA VA MUHOKAMA

Moyjuvozlarning shahar va qishloqlarda joylashgan bo'lib, ish faoliyati aholini yog'qa bo'lgan talabiga bog'liq bo'lib, talab bo'lmagan vaqtida faoliyati to'xtab turgan. Bu vaqtda ularning egalari hunarmandchilik bilan yoki dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. 1896-yilda viloyat uyezdlarida 2450 ta moyjuvozlarning mavjud bo'lib, ularning ishlab chiqargan mahsuloti 211086 rub.ni tashkil etgan. 1898-yilga kelib ularning soni 3100 tani, ishlab chiqargan mahsuloti 262500 rub.ga yetgan.

Xarakterli tomoni shundaki, XX asr boshlariga kelib kapitalistik tipdagi yog'-moy korxonalarini tashkil topqandan keyin ham kustar yo'li bilan yog' ishlab chiqarish qisqarish o'rniga aksincha sezilarli darajada ko'paygan. 1909-yilda moyjuvozlarning soni 4334 taga yetgan, ishlovchilarning soni 4545 kishini tashkil etib, ishlab chiqargan mahsuloti deyarli 500 ming rub.ni tashkil etgan. [23.319] Boshqacha aytganda 1884-yilga nisbatan yog' ishlab chiqarish hajmi deyarli 8 barobarga ortgan. O'simlik yog'i ishlab chiqarish xajmi jihatidan viloyatda Andijon uyezdi birinchi o'rinda turgan. Ikkinchi o'rin esa Qo'qon uyezdiga to'g'ri kelgan. Kustar yo'l bilan yog' tayyorlash xajmining ortib borishini shu bilan izohlash mumkinki, o'rganilayotgan davrda na faqat aholi sonining ortib borishi balki yog' narxining ortib borishi ham sabab bo'lgan. Masalan, agar 1885-yilda bir pud qo'y yog'ining narxi o'rtacha 4 rub.16 kop bo'lgan bo'lsa, 1897-yilga kelib – 6 rub. 99 kop.ni tashkil etgan. Bu tendensiya XX asr boshlarida ham davom etgan.

Ta'kidlash o'rinliki, mavjud yog'-moy korxonalarini, unumsiz bo'lishiga qaramasdan aholining shu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlay olgan. chunki bu ehtiyojning ma'lum bir qismini so'yib iste'mol qilinadigan qo'y yog'i hisobiga qondirib kelingan.

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin o'lkada yog'-moy ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarining vujudga kela boshladi.

Farg'ona viloyatida birinchi yog'-moy zavodi 1884-yilda Qo'qonda savdogar S.I.Laxtin tomonidan qurildi. [2.3]. Biroq ushbu zavod asbob-uskunalar bilan yomon jihozlanganligi uchun 10 ish soat davomida hammasi bo'lib 35 pud yog' ishlab chiqargan. Yil davomida ishlab chiqargan mahsuloti qiymati 6000 rub.ni tashkil etardi. Zavodda ikkita gidravlik press, bitta kunjara maydalaydigan mashina mavjud bo'lgan xolos. [20.50].

Ammo bir qator sabablarga ko'ra, viloyatda yog'-moy korxonalarini qurish sohasida siljish, rivojlanish yuz bermadi. Uning asosiy sabablaridan biri mahalliy aholining yog'-moy zavodlarida tayyorlangan moyni yaxshi xarid qilmaganligi bo'ldi. Chunki moyjuvozlarda sovuq usulda tayyorlanadigan moyni iste'mol qilib o'rgangan aholi uchun issiq atmosfera bosimda ishlab chiqarilgan yog'ning ta'mi maqul kelmadi, undan ko'lansa xid kelib turardi. [3.143].

Ishlab chiqarilgan mahsulot mahalliy aholi tomonidan yaxshi sotib olinmagach, uni tashqi bozorga chiqarishga to'g'ri kelardi. Buning uchun esa transport vositalari kerak bo'lardi. Tuya karvonlari yordamida yuk tashish g'oyat qimmatga tushar edi. Qo'qondan Orenburggacha bo'lgan 2300 verst masofani tuya karvonlari 60-70 kunda bosib o'tar, tashiladigan har pud moy uchun 1 so'm 80 tiyindan 2 so'm 10 tiyingacha kira to'lanardi. [2.5]. Buning ustiga, bir tuya 15-18pud yuk ko'tara olardi edi, xolos. [1.125-126]. Shu bilan mutaxassislarining yetishmasligi ham bu soha taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri edi.

Yog'-moy sanoati taraqqiyotiga to'siq bo'lgan eng asosiy sabablardan biri ma'muriy hukumatning bu sohani rivojlantirish uchun hech qanday moddiy yordam ko'rsatmasligi edi. "Zavod egalari katta mablag' sarflab zavodni qurishga kirishganligiga hamda ular g'oyat qimmatbaho

TARIX

mashina uskunalarni sotib olayotganligiga qaramasdan, hukumat yangi soha uchun mablag' ajratishdan cho'chir edi". [2.5].

Mablag'ning yetishmasligi tufayli ayrim hollarda qurila boshlagan zavodlar nihoyasiga yetmay chala qolar edi.

O'lkaga yuqori sifatli hamda arzon narxdagi fabrika-zavod mahsulotlarining ko'plab kirib kelishi tufayli kustar hunarmandchilikning ko'pgina tarmoqlari raqobatga dosh berolmasdan sindi.

Bunday raqobat hunarmandchilik tipidagi yog'-moy korxonalarini bilan rus sanoatchilari tomonidan o'lkada endigina barpo qilinayotgan yog'-moy zavodlari o'rtasida ham mavjud edi. Lekin buni raqobat deb atash noo'rindir. Chunki bir sutkada zo'rg'agina 5 funt yog' oladigan moyjuvoz, 250 atmosfera bosimi ostida 10 soatlik ish kunida 35 pud yog' ishlab chiqara oladigan yog'-moy zavodi bilan tenglasha olmas edi. Shunga qaramasdan mahalliy moyjuvoz korxonalarini tamomila yo'qolib ketmadi, aksincha yildan-yilga ularning soni va ishlab chiqarish darajasi osha bordi. Buning sababi, bir tomondan, oblastda yog'-moy sanoatining nihoyatda sekinlik bilan rivojlanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan kustar –hunarmandchilik korxonalarida ishlab chiqariladigan moyning aholi didiga mos kelishi edi. Shuning uchun ham bu davr ichida aholining yog'-moy mahsulotlariga bo'lgan talabining asosiy qismi moyjuvoz korxonalaridan olinadigan mahsulotlar evaziga qondirildi.

Agar 1890-yilda oblastdagi 2430 ta yog'-moy korxonasi 211086 so'mlik [13.33-34] mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 1898-yilga kelib ularning soni 3100 taga ko'paydi va ular 2 625 000 so'mlik mahsulot ishlab chiqardi. [14.64-65].

O'tgan asrning 80-yillari o'rtalaridan qurishga kirishilgan va 1899 yilda Toshkent va Andijongacha yetkazilgan (Zakaspiy) O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi o'lkada yog'-moy sanoatining rivojlanish davrini boshlab berdi. [5-34].

Ma'lumki, temir yo'l tarmoqlarining barpo etilishi bilan mahsulotlarni tashib olib ketish ancha arzon va qulaylashdi. Natijada paxta moyiga bo'lgan talab Rossiyaning ichki bozorlarida ham g'oyat kuchaya boshladi.

Viloyatda paxta yetishtirishning tobora o'sib borishi 1900-1905 yillardan boshlab ko'plab yog' zavodlarining qurilishiga olib keldi.

Oblastda sanoat asosida paxta moyi olish ishining targ'ibotchisi va jonkuyarlaridan biri moskvalik savdogar K.M.Solovyov bo'lgan. U Rossiyadagi va hattoki chet ellardagi yog'-moy korxonalarining ish faoliyati bilan yaqindan tanish edi. 1900-yil oxiriga kelib Namangan uyezdining Chust shahridagi o'ziga qarashli paxta tozalash zavodida moy ajratadigan mashina o'rnatdi. 1901-yil fevral oyiga kelib alohida yog'-moy zavodini qurib bitqazdi. Bu zavod bir sutkada 400 pud paxta moyi ishlab chiqarar edi. [12.2,5].

Xuddi shu yili oblastda amerikacha sistemada gidravlik press bilan ishlaydigan yana 2 ta zavod qurilib, ishga tushirildi. Bulardan biri V.G.Omelchukka qarashli bo'lib, Qo'qon uyezdining Beshariq qishlog'ida joylashgan edi. Ikkinchisi esa Marg'ilon uyezida bo'lib, M.Sarimsoqboyevga qarashli edi. birinchi zavodda 1 ta keyingisida esa 2 ta press bor edi. [11.115].

Andijonda 1907-yil "K.M.Slovyev i K0" firmasi tomonidan o'lkada yirik eng yangi texnika vositalari bilan jihozlangan paxta tozalovchi va yog' ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. Zavod Andijon stansiyasi yaqiniga joylashgan bo'lib, temir yo'l shahobchasi orqali stansiya bilan bog'langan hamda ishlab chiqarilgan yog'ni uzoq masofalarga eltish uchun 150 ta shaxsiy vagon-sisternalariga ega bo'lgan.

Shu yili shaharning Tilla-xo'ja kvartalida "Farg'ona shirkati" firmasi tomonidan ikkinchi yog' zavodi qurildi. Quyida (jadval 1) yog' zavodlarining ishlab chiqargan mahsuloti, ishchilar, mexanizmlar soni bilan tanishish mumkin. [9.41-42].

Yillar	Zavodlar soni	Presslar soni	Ishchilar soni	Bir kunlik qayta ishlangan chigit (pud hisobida)	Sezon davomida qayta ishlangan chigit (ming pud hisobida)	Olingan mahsulot (ming pud)			
						yog'	momiq	kunjara	sheluxa
1907	2	8	125	7 000	1820	240	14	66	903
1908	2	12	150	11 000	2050	290	16	716	1025

K.M.Solovyovga qarashli yog'-moy zavodi mahsulotining Moskvaga jo'natilishi va bu mahsulotning u sifati bilan xaridorlar talabiga mos kelishi oblastda yog'-moy korxonalarini yanada ko'plab qurilishiga turtki bo'ldi. Natijada 1902-yilga o'tib Namangan uyezdida K.M.Solovyovga hamda "Zigel va Reynegagen savdo uyi"ga qarashli bo'lgan ikkita yog'-moy zavodi ishga tushirildi. Bu ikkala zavodning ham qo'lga kiritgan ilk yutuqlari, ishni yanada rivojlantirishni taqozo eta boshladi. Shu tufayli K.M.Solovyovga qarashli zavod asosiy kapitali 2 million so'mdan iborat bo'lgan "Solovyov va K0 ning Turkiston savdo-sanoat shirkati" qilib "Zigel va Reyngagen savdo uyi"ga qarashli zavod esa "Andreyev savdo-sanoat" aksionerlik jamiyatlari qilib qaytadan tuzildi. [2.7].

"Andreyev savdo-sanoat" aksionerlik jamiyati 4 ta press bilan ishlovchi yangi zavod qurib bitqazdi.

1905-yilga o'tib esa Marg'ilon stansiyasida S.G'iyosxo'jayev tomonidan yog'-moy zavodi qurildi. [11.15].

Lekin shunga qaramasdan oblastda yog'-moy sanoatining kuchli sur'atlar bilan o'sishi 1905-yildan boshlandi. [3.145].

1906-yilga kelib Andijon va Toshkentga yetkazilgan O'rta Osiyo temir yo'li Orenburg temir yo'li bilan tutashtirildi. Xuddi shu davr ichida Farg'ona oblastida paxta yetishtirish ham keskin ko'paydi. Agar 1903-yilda oblast bo'yicha olingan jami paxta hosili 9609799 pudni [21.64] tashkil etgan bo'lsa, 1906-yilga kelib 125621198 pudga [16.62] yetdi.

Demak, yog'-moy sanoatining asosiy xom ashyosi sanalgan paxta hosildorligining keskin ko'payishi va temir yo'l tarmoqlarining uzaytirilishi yog'-moy sanoati taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tardi.

Shunday qilib, 1908-yilga kelganda oblast bo'yicha yog'-moy zavodlarining umumiy soni 13 taga yetdi. [8.73].

1913 yilga kelib esa ularning soni 18 taga ko'paydi. (Lekin bulardan faqat 13 tasigina mahsulot ishlab chiqargan). [24.18].

Bir qaraganda yog'-moy zavodlarining son jihatidan o'sishida unchalik katta o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi. Lekin yog'-moy zavodlari texnika bilan jihozlanish, mahsulot ishlab chiqarish darajasi jihatlaridan sezilarli darajada o'sdi.

Yog'-moy sanoati korxonalari vujudga kelgan dastlabki davrdan boshlab paxta tozalash zavodlari o'zining yirik korxonalari bilan ajralib turgan. Chunonchi oblastning paxta tozalash zavodlari yil davomida o'rtacha 111 kun, yog'-moy zavodlari esa 232 kun ishlagan. [3.155].

Agar 1908-yilda oblastdagi yog'-moy zavodlari mavsumda 7 million 383 ming pud chigitni qayta ishlagan va 106700 pud yog' ishlab chiqargan bo'lsa [8.159], 1910-yilga kelib ular 12 million pud chigitni qayta ishladi, ishlab chiqarilgan moy 1800000 pudni tashkil etdi. [18.8]. 1913-yilda yog'-moy zavodlarida 11956129 pud chigit qayta ishlandi.

1914-yili butun Turkiston bo'yicha jami 19 ta yog'-moy zavodida 1948545 pud paxta yog'i olingan bo'lsa, shundan 1811170 pud Farg'ona oblastiga to'g'ri kelar edi. [3.155]. Turkiston bo'yicha ishlab chiqarilgan 18 million so'mlik yog'-moy mahsulotining 82 protsenti birgina Farg'ona oblasti ishlab chiqargan mahsulotga teng edi. [7.43].

Namangan shahridagi aka-uka Matmusaboyevlarga qarashli "Namangan yog'-moy savdo jamiyati" 1909-yilning o'zidagina 150000 pud chigitni qayta ishlab, 250000 pud yog' ishlab chiqardi. Qo'qondagi R.SH.Potelyaxovga qarashli moy zavodi esa 1913-yilning 20-yanvaridan 31-

TARIX

yanvarigacha bo'lgan vaqt ichida 75210 pud chigitni qayta ishlab, 12987 pud chigit moyi ishlab chiqardi. [26.24-31].

Shu o'rinda yog'-moy zavodlarining texnikaviy holati haqida ham to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Paxta tozalash zavodidan keltirilgan chigit yog'-moy zavodining tozalash bo'limida maxsus apparatlar (Burat separatori) yordamida turli xil xas-xashak va qattiq jismlar qoldiqlaridan tozalangan. Shundan so'ng chigit ajratuvchi kameralarda po'stloq va yadroga ajratilgan. Yadro mexanizmlar yordamida ezgilangan hamda 107-112 daraja issiqlikda qizdirilgan. Nihoyat uni presslar yordamida qattiq qisilib, moyi olingan. Shunday qilib, presslar ishlab chiqarish jarayonida yakunlovchi shu bilan birga, asosiy vazifani o'tagan.

Shu boisdan ham, odatda, yog'-moy korxonasi qudratiga baho berilganda, unda mavjud bo'lgan presslar e'tiborga olingan. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, Farg'ona oblasti yog'-moy korxonalari o'lkada yetakchi o'rinda turgan. [8.159].

Agar oblastning yog'-moy zavodlarida 1908 yilda jami 33 ta press ishlagan bo'lsa, 1910-yilga kelib ularning soni 50 taga yetdi. [11.118].

Quyidagi 2-jadval oblast yog'-moy zavodlarining 1914-yilgi texnikaviy holati haqida aniq ma'lumot beradi.

2-jadval. [3.166].

Yog'-moy zavodlari soni	"Burat" separatori		Ezuvchi mexanizm		Presslar	
	soni	ot kuchi	soni	ot kuchi	soni	ot kuchi
13	23	66	15	290	69	250

Xuddi shu yili Turkiston o'lkasi bo'yicha 19 ta yog'-moy zavodi ishlagan bo'lib, ularda 84 ta press bor edi. [3.166].

Namangandagi "Paxta va paxta moyi ishlab chiqaradigan savdo shirkati"ga qarashli, aka-uka Matmusaboyevlarning yog'-moy zavodi AQSH hamda Rossiyaning yirik sanoat markazlarida tayyorlangan kuchli dvigatellar bilan jihozlangan edi. 1910-yilning 26-iyulida Peterburgdagi Putilov zavodida tayyorlangan chigit tozalovchi "separator", uni ezgilaydigan va qizdirish qozonlari Namanganga jo'natildi.

Zavodda 800 ot kuchiga ega bo'lgan turli xildagi dvigatellar mavjud edi. Sifatli mahsulot ishlab chiqarishgani uchun 1903-yilda Skobelev shahrida bo'lgan qishloq xo'jalik vistavkasida zavod katta oltin medal olgan. [27.48].

Aholining zavod ishlab chiqarayotgan mahsulotga bo'lgan talabi ortib borayotganligini zavod nomiga Rossiyaning turli shaharlaridan paxta moyi jo'natishni so'rab yozilgan xatlardan bilish mumkin. Chunonchi, 1913-yil oktyab oyida Qozon, Kiyev, Odessa, Xarkov shaharlaridan bir sistemadan moy jo'natish haqida iltimosnoma olingan. Oradan ko'p o'tmay mazkur savdo shirkatining Odessa shahridagi savdo kontorasi Turkiya davlati moyga xaridor bo'layotganligini ma'lum qilib, quyqumi kam, toza yog' jo'natishni so'raydi. [28.14,16,29].

1914-yil 3-martda Ruminiyaning Galak shahridan, ular bilan yog' savdo qilishni yo'lga qo'yishni so'rab yozilgan xat olinadi. [22.4].

O'lkada yog'-moy zavodlari qurilganga qadar hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan chigit yog'-moy sanoatining vujudga kelishi bilan qimmatli xom ashyoga aylana boshladi. Chunki kustar yog'-moy korxonalari paxta tozalash zavodlari tomonidan chiqarib tashlanayotgan chigitni qayta ishlab ulgurmas edi. Qolaversa ular asosan o'simlik moyi olish bilan shug'ullanar edi. Paxta chigitini tashib olib ketish vositalarining noqulayligi tufayli yem-xashak yoki yerga o'g'it sifatida, ko'p hollarda esa o'lkada yoqilg'i vositalarining yetishmasligi oqibatida yonilg'i manbai sifatida foydalanilar edi. [23.114].

1896-yil yanvar oyida bir pud a'lo navli chigitning narxi Namangan va Andijon shaharlarida 6 tiyin, Qo'qonda 10 tiyin turar edi, xolos. [19.2].

XX asrning birinchi 10 yilligi oxirlariga kelib temir yo'l tarmoqlarining kengayishi, yog'-moy ishlab chiqarishning sanoat asosida keng yo'lga qo'yilishi tufayli chigitga bo'lgan qiziqish ortishi bilan uning narxi ham ko'tarila bordi. Agar 1900-yilda 1 pud chigit 5-8 tiyindan sotilgan bo'lsa, 1905-yilda 23-32 tiyinga ko'tarildi, 1910-yilga kelib esa 60-71 tiyinga yetdi. [2.14].

Ko'rinadiki, XX asrning dastlabki o'n yilligi ichida chigit narxi o'n barobardan ziyodroq oshgan. Chunki xuddi shu yillar mobaynida oblast yog'-moy zavodlarining soni ham ko'paygan edi. Natijada tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan oblastning yog'-moy sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash muammosi paydo bo'la boshladi. Bunday holat oblast yog'-moy sanoati endigina tetapoya bo'layotgan dastlabki davrlarda unchalik sezilmadi. Lekin asosan 1909-1910 yil mavsumiga kelib chigit tanqisligi masalasi ko'ndalang bo'lib turdi. Natijada uni chetga chiqarish ham keskin kamayib ketdi. Masalan, Qo'qon stansiyasidan 1905-yilning o'zidagina 6763 pud chigit chetga chiqarilgan bo'lsa, 1911-yilga kelib bu miqdor 183 pudga tushib qoldi. [2.14].

Bu hol, bir tomondan oblast yog'-moy zavodlarining normal ishlash imkoniyatini xavf ostiga qo'ysa, ikkinchi tomondan, paxtachilikning rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan holi emas edi. Biz bu o'rinda hatto urug'lik uchun ajratilgan a'lo navli chigitlarni ham yog'-moy zavodlari tomonidan yutib yuborilishni ko'zda tutayapmiz.

Arxiv materiallari birinchi nav urug'lik chigitlar hatto hosil yig'ilmasdan bir yil ilgariyoq [29.13] zavodchi boylar tomonidan sotib olinishini tasdiqlaydi. Natijada ekish uchun past navli chigitlargina qoladigan va ba'zan hatto bu ham yetishmaydigan bo'lib qoldi. Birgina 1910-yilning o'zida oblast bo'yicha urug'likka yaroqsiz bo'lgan past navli chigit ekilishi oqibatida avvalgi yilgidan 37500 pud paxta tolasi kam olingan yoki ko'rilgan zarar 4,25 million so'mni tashkil qilgan. [19.49].

1910-yil mavsumidan boshlab chigit krizisi yuz berishi xavfi tug'ila boshladi. Uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarga ko'z tashlaylik.

1909-yilda Farg'ona oblastida 200000 desyatina yerga paxta ekilgan. Olingan hosil 19000000 pudni [30.13] tashkil qilgan. Bu hosildan 12500000 pud chigit ajratib olingan. Bundan atigi 4 million pudga yaqinagina birinchi nav urug'li chigit edi, xolos. [15.112].

Xuddi shu yili oblastdagi mavjud yog'-moy zavodlari 9 million 500000 pud chigitni qayta ishladi. Uyezd bo'yicha taqsimlansa quyidagicha:

Andijon uyezdi yog'-moy zavodlari – 3500000 pud.

Marg'ilon uyezdi yog'-moy zavodlari – 4500000 pud.

Namangan uyezdi yog'-moy zavodlari – 1300000 pud.

Qo'qon uyezdi yog'-moy zavodlari – 200000 pud.

Agar buning ustiga shu yili oblastdan chetga chiqarilgan 1000000 pud chigitni ham qo'shsak, 10500000 pud chigit sarf bo'lganligini ko'ramiz.

Mavjud paxta ekin maydonlariga o'rtacha har desyatina yerga 6 – 12 pud o'rtasida chigit sarflansa, 1500000 pud chigit [30.13] kerak bo'ladi. Buni yuqoridagi miqdorga qo'shsak, 12000000 pud hosil bo'ladi. Ko'rinadiki, 0,5 million pud chigit ortayapti, xolos.

Oblastda yog'-moy zavodlari qurilishi tez sur'atlar bilan davom etmoqda edi. Shuning uchun ham "Turkestanikiye vedomosti" gazetasi haqli ravishda paxtachilik va yog'-moy zavodlari, har biri o'z manfaatlari yo'lida bir-birlariga katta zarar keltira boshladi [18.42] deb yozgan edi.

Lekin keyingi yillarda bu muammo ancha ijobiy hal etildi. 1913-yili Farg'ona oblast paxta tozalash zavodlari 18118242 pud chigit ajratib oldi. Shundan faqat 11956129 pudigina yog'-moy zavodlari tomonidan qayta ishlandi, xolos. [3.146].

Buning asosiy sababi yildan – yilga paxta hosili ortib borgani holda, yog'-moy zavodlari o'zgarishsiz turishidir. Chunki 1908-yildan 1913-yilgacha bo'lgan vaqt ichida yangidan birorta ham yog'-moy zavodi ishga tushmadi.

Farg'ona faqat yog'-moy ishlab chiqarishdan emas, balki uni chetga chiqarishda ham Turkiston o'lkasi oblastlari ichida yetakchilik qilgan. Birgina misol 1908 yilda oblast bo'yicha chetga chiqarilgan moy 455523 pudni [2.132] tashkil etgan bo'lsa, xuddi shu yili Turkiston o'lkasi bo'yicha atigi 569733 pud paxta moyi chetga chiqarilgan edi. [5.34].

Rossiya kapitazmi imperalizmgga o'sib o'tgach, XX asrning birinchi o'n yilliklaridan boshlab o'lkada xom ashyoga dastlabki ishlov beradigan sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish yiriklashdi, monopolistik uyushmalar vujudga keldi. Qo'qondagi aka-uka Vadyayevlarga qarashli savdo uyining yog'-moy zavodlari bir yilda 2,8 million pud chigitni [7.43] qayta ishlay olar edi. Shunga qaramasdan, 1912-yilga kelib bu uyushma 1905-yili tuzilgan "Andreyev savdo-sanoat sherkati" bilan qo'shilib, 6 million kapitalga ega bo'lgan "Vadyayev savdo-sanoat sherkati" qilib qaytadan tuzildi. Unga Qo'qon, Andijon, Skobelevdagi paxta tozalash, sovungarchilik va 5 ta yog'-moy zavodi qarar edi. [31.11].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach yengil sanoatning ko'pgina tarmoqlari vujudga kela boshladi. Buning natijasida uning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlandi, o'lkaga kapitalistik munosabatlar kirib kela boshladi.

Bunday korxonalarining hammasi deyarli yarim kustar xarakterga ega bo'lib, asosan, bu zavodlar arzon ishchi kuchi yordami bilan Markaziy Rossiya sanoati uchun xom ashyo tayyorlash maqsadida qurilgandi. Bu umumiy mustamlaka mamlakatlariga xos bo'lgan taraqqiyot ko'rinishi edi. Chunki chekka o'lkalarda markazlashgan sanoatning vujudga kelishi va ishchilar sinfining yirik ishlab chiqaruvchi korxonalarga uyushuvchi podsho hukumatining manfaatlariga butunlay zid edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вельяминов – Зернов В.В. Сведения о Кокандском Ханстве. – “Вестник русского географического общества”, СПб., 1856.
2. Гофмейстер В.Г. Использование семян хлопчатника в Средней Азии. СПб., 1914.
3. Заорская В.В. Александер К.А. Перомышленные заведения Туркестанского края. –Пг., 1915.
4. Дмитриев – Мамонов А.И. Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Средне-Азиатской и Ташкентской.
5. Оглоблин В.А. Промышленность и торговая Туркестана – Москва, 1914.
6. Предтеченский А.А. Работа хлопкоочистительных заводов Туркестана в 1921 – 1925 гг. М., 1926.
7. Суворов В. Историко-экономический очерк развития Туркестана. Т., 1962.
8. Конопка С.Р. Туркестанский край. Т., 1910.
9. Шарафиддинов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Ўзбекистон саноати тарихидан. – “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”. Тошкент, Фан-1978, 8-сон.
10. Ежегодник Ферганской области. Новый Маргелан, 1902.
11. Кокандский биржевой комитет за 1910 г., Доклад Кокандского биржевого комитета общему собранию за 1910 г. (четвёртый год деятельности) – Тошкент, 1912.
12. Обзор Ферганской области за 1884 г. Новый Маргелан, 1886.
13. Обзор Ферганской области за 1890 г., Новый Маргелан, 1892.
14. Обзор Ферганской области за 1898 г., Новый Маргелан, 1900.
15. Туркестанское сельское хозяйство, 1909., №2.
16. Туркестанское сельское хозяйство, 1910., №1.
17. Туркестанские ведомости, 1896, №2.
18. Туркестанские ведомости, 1910, №42.
19. Туркестанские ведомости, 1911, №49.
20. СПб. МДТА., 1396-фонд, 1-рўйхат, 72-иш.
21. РФ. МДХТА, 400-фонд, 262-рўйхат, 98-иш.
22. РФ. МДХТА, 400-фонд, 262-рўйхат, 55-иш.
23. ЎзР МА., 90-фонд, 1-рўйхат, 75-иш.
24. ЎзР МА., 90-фонд, 1-рўйхат, 142-иш.
25. ЎзР МА., 90-фонд, 1-рўйхат, 2-иш.
26. ЎзР МА., 93-фонд, 1-рўйхат, 3-иш.
27. ЎзР МА., 214-фонд, 1-рўйхат, 8-иш.
28. ЎзР МА., 214-фонд, 1-рўйхат, 59,127,136-иш.
29. ЎзР МА., 90-фонд, 1-рўйхат, 36954-иш.
30. ЎзР МА., 19-фонд, 1-рўйхат, 36954-иш.
31. ЎзР МА., 1-фонд, 17-рўйхат, 911-иш.